

boshqa narsa emas. Chunki joy nomlari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Uning paydo bo‘lishida muayyan tarixiy asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-5 жилдлар. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.
2. Сатторов А. Нурга бурканаётган Нуробод – Тошкент: Фан зиёси нашриёти, 2022.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 58-б.
4. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989, 6-б.
5. С. Қорайев. Топонимика. – Тошкент: Ўзбекистон фayoлафуллари миллий жамияти нашрийоти, 2006.
6. R.Y Худойберганов ва бoшқалар. Ўзбекистон joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.
7. Б.Ўринбоев. Асрлардек барҳаёт номлар. Самарқанд вилояти топонимик изоҳли луғати. – Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 2003.
8. Т. Нафасов. Қашқадарё кишлокномаси. Қашқадарё вилояти кишлоклари номининг тадкики. – Тошкент: Муҳаррир, 2009.

TAMADDUN NURI

TARIX

UDK: 93(94).930.2

BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI AFRIG‘IYLAR DAVRI TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

Annotatsiya: Ushbu maqolada Beruniyning “Al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya” asarida keltirilgan ilk xorazmshohlar sulolasi sifatida qayd etilgan Afrig‘iylar sulolasiga oid ba’zi fikr-mulohazalar bilan tanishamiz.

Kalit so‘zlar: Afrig‘iylar, Askajamuk II, Arsamux, Abdulloh Muhammad ibn Ahmad, Al-Fir.

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые идеи и выводы, вынесенные в сочинении Аль-Беруни “Осор ул бокия ан ал-қурун ал-холия” относительно султаната Афригидов, которое было упомянуто как первое упоминание о хорезмшахах.

Ключевые слова: Афригиды, Аскаджамук II, Арсамух, Абдуллох Мухаммад ибн Ахмад, Аль-Фир.

Abstract: In this article, we will familiarize ourselves with some ideas and conclusions presented in Al-Biruni's work “Chronology” regarding the Afrighids dynasty, which was mentioned as the first reference to the Khwarezmshahs.

Key words: Afrighids, Askajamuk II, Arsamuk, Abdullah Muhammad ibn Ahmad, Al-Fir.

“Ulug‘ hodisalar har vaqt yuz beravermaydi”

Abu Rayhon Beruniy

Afrig‘iylar sulolasining siyosiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi yozma manbalar nihoyatda kam. Bunga misol tariqasida Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya” asaridan olingan parchani ko‘rsatishimiz mumkin. Unda “Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va bilimlarni boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul



Mardonbek RAJAPOV,
O‘zR FA Tarix instituti
Tarixshunoslik va
manbashunoslik markazi
tayanch doktoranti



yo‘q qilgan edi”[1]. Bundan tashqari, o‘tgan davr mobaynida birgina Turon hududining o‘zida turlicha siyosiy mafkuralarga ega bo‘lgan o‘nlab davlatlar hukm surgan. Shu sababdan uzoq vaqt davomida tarixning qorong‘i sahifalarini yoritib beruvchi ko‘plab tarixiy asarlar umuman yo‘qolib ketgan bo‘lsa, ulardan ayrimlarining faqat ma‘lum bir qismigina bizgacha yetib kelgan. XII-XIII asrlarda yozilgan asarlarning Xorazm vohasiga tegishli qismidagi ma‘lumotlar, ko‘pincha bir-biriga zid bo‘lib, ularga tayanib muhim tarixiy voqealar sanalarini yoki hikoya qilinayotgan voqeaning tarixiy haqiqatini anglash mushkul ish. Bu muammoga hatto, V.V.Bartold ham duch kelganini ta‘kidlab o‘tgan [2].

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) davrida Turon aholisi uchun yangi din bo‘lgan islom dini va uning asosida kirib kelgan yangi madaniyat mazkur hududda mavjud bo‘lgan davlatlar rivojiga juda katta ta‘sir qilgani shubhasiz. Beruniy zamonida Kat shahri nafaqat Xorazmning, balki butun Turonning eng yirik savdo-sotiq markazlaridan biriga aylanib ulgurgan edi. Afrig‘iylar sulolasining poytaxti Kat shahri bu davrda Yettisuv, Oltoy, Janubiy Sibir, Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq, Volgabo‘yi, Kavkaz va Sharqiy Yevropa hududlari bilan savdo yo‘llari orqali bog‘langan. Bunday sharoit Xorazm shaharlarida ilm-fan rivojiga ham sezilarli ta‘sir qilgan. Shunday bir ijtimoiy-madaniy muhitda tug‘ilib o‘sgan Beruniy ilm-fanga qiziqishi sabab, yoshligidan ko‘pgina olimlarning e‘tiboriga tushadi. Ulardan biri Afrig‘iylar xonadonining yaqin qarindoshi Abu Nasr ibn Iroq bo‘lib, olimning bobosi Xorazmshoh Iroq ibn Mansur, uning amakisi Xorazmshoh Muhammad ibn Mansuredi [3].

Abu Rayhon Beruniy X asrdagi Xorazmdagi siyosiy voqealar sabab Ray va Jurjon shaharlarida yashaydi. Bu yerda Erondagi Ziyoriyalar sulolasidan Qobus ibn Vashmgir unga homiylik qilib, o‘z saroyida vazirlik darajasini taklif qilgan [4]. Beruniy o‘zining “Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya” asarini Jurjon shahrida 27 yoshida 1000-yillarda yozib tugatadi. Bu asar Yevropada “Xronologiya”, o‘zbek sharqshunosligida “Osor ul-boqiya” nomi bilan mashhur.

Ushbu tarixiy asar katta ahamiyatga ega. Chunki asarda Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixini yorituvchi ma‘lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Asarda Beruniy Afrig‘iylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, Afrig‘iy-xorazmshoh sulolalardan 22 hukmdorning ismlarini xronologik jihatdan ketma ketlikda keltirgan. Bu ma‘lumotlar hozirgi kunda arxeologik va numuzmatik ma‘lumotlar uchun muhim qiyosiy manba hisoblanadi [5].

Asarda Afrig‘iylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelishi shunday izohlanadi: *“Xorazmliklar Xorazmga odamlar joylasha boshlagandan tarix ola boshladilar, bu Iskandardan 980 yil ilgari bo‘lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko‘chib, turk podshohlari [ustidan] hukmronligini yurg‘izgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashganidan 92 yil keyin bo‘ldi. So‘ngra ular tarix olishda eronliklarga ergashib, Kayxusravning [Xorazm]shoxlari deb ataluvchi naslidan bo‘lgan har bir [podshoh davrining boshlanishidan] tarix oldilar. Nihoyat Kayxusrav davridan Ofrig‘ podsholigi boshlandi. Eronliklar “gunohkor” Yazdijardni yomon xabar keltiruvchiga yo‘yganlaridek, [xorazmliklar] Ofrig‘ni shum habar keltiruvchiga chiqardilar. Ofrig‘dan keyin uning o‘g‘li podshoh bo‘ldi. [Ofrig‘] Iskandar tarixining 616-yilida al-Fir ustiga o‘z qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar ofrig‘ va uning avlodlari podshohligidan tarix oldilar”.* Al-Fir Xorazm shahrining chekkasidagi loy va xom g‘ishtdan qurilgan qal‘a bo‘lib, bir-birining ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo‘rg‘on edi. Bu barcha qo‘rg‘onlar tepasida Yamandagi G‘umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi. G‘umdon-tabbalarning turar joylari bo‘lib, San‘a masjidi Jome ro‘parasidagi toshdan qurilgan qal‘adir. Aytilishicha, u to‘fondan keyin Som ibn Nuh qurgan binolardandir. Som qazigan quduq ham o‘sha yerdadir. Ba‘zilar esa, bu Zahhok tomonidan Zuhra ismiga atab qurilgan haykal, deganlar. Al-Fir o‘n milcha va undan ko‘proq

masofadan ko'rinar edi. Jayhun har yili uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; Nihoyat Iskandar tarixining 1305-yilida undan asar qolmadi"[6].

"Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" arab tilida yozilgan. Bu kitobni birinchi marta Yevropa olimlariga tanishtirgan kishi sharqshunos va beruniyshunos olim Eduard Zaxau edi. Olim asarni 1876-1878-yillarda Leypsigda arabcha nusxasini nashr etdi[7]. 1879-yilda ingliz[8], 1943-yilda fors, 1957-yilda rus tillarida asar nashr etilgan[9]. O'zbekcha tarjimasini 1968-yilda Toshkentda Beruniy "Tanlangan asarlari" turkumida (1 jild) O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan nashr qilingan. S.P.Tolstov "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asariga to'xtalib, Xorazm vohasining ilk o'rta asrlar tarixini o'rganish ahamiyati haqida mufassal tasvirlab, unga juda yuksak baho beradi va Beruniyning "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" asarida keltirilgan Xorazm haqidagi ma'lumotlarning ko'pchiligi arxeologik tadqiqotlar natijasida o'z isbotini topganligini aytib o'tadi[10].

"Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" asarida Beruniy o'zi tilga olgan shaxslarning shaxsiga, ular yashagan va hukmronlik qilgan yillarga aniqlik kiritmaydi. Faqat Askajamuk II 712-yilda Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim tomonidan hokimiyat tepasiga o'rnatilgani, Arsamuh Muhammad (s.a.v) davrida taxtda bo'lganligi, sulola asoschisi Afrig'ning Iskandar davrining 616-yilida (milodiy 305-yilda) al-Fir ustida o'z saroyini qurdirganini aytadi. Al-Beruniyning asaridan boshqa yozma manbalarda deyarli 700 yil davomida Xorazmni boshqargan qadimiy Xorazmshoh sulolasi haqida hech qanday ma'lumot yo'qligi eng muhim bo'shliqdir. Beruniyning hayoti va faoliyati o'rganish XIX asrning 50-yillaridan boshlangan va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zamonaviy tadqiqotlarda Beruniyning "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" asarida keltirilgan Afrig'iyalar sulolasiga oid bir-biriga zid bo'lgan fikr-mulohazalarni qayd etishgan. Masalan: K.E. Bosvort Afrig'iyalar sulolasining paydo bo'lishiga bevosita to'xtalib, sulolaga oid ma'lumotlarning aksariyati faqat Beruniy tomonidan yozib

qoldirilganligi va uning ishonchligini shuhba ostiga oladi va Beruniy haqiqatda islomgacha bo'lgan Xorazm tarixini yaxshi bilmasligini keng qamrovli sovet arxeologik topilmalaridan Afrig' nomining yo'qligini misol qilib ko'rsatadi [11]. K.E.Bosvort fikricha Afrig' [fryg] sulolaviy nomi Beruniydan boshqa joyda tasdiqlanmagan, bu esa tarixchi olimlarning bu nom hech qachon mavjud bo'lmaganligini taxmin qilishiga sabab bo'lgan. Xorazmning qadimgi va o'rta asrlar tarixini S.P.Tolstovchalik o'rgangan olim bo'lmas kerak. Uning tadqiqotlari Xorazm tarixini o'rganish uchun muhim tayanch vazifasini o'tashi aniq. Biroq bu tadqiqotimizda S.P.Tolstovning tadqiqotlariga ko'p murajaat qilmadik. Bizning fikrimizcha, S.P.Tolstovning asosiy vazifalaridan biri Beruniy asarida tilga olingan sulola asoschisi Afrig'ga oid arxeologik dalil-isbot topish bo'lgan va xattoki areologik qazishmalar davomida topilgan tangalardan birining yuzida aks etgan yozuvni "podsho Afrig'" deya o'qigan [12]. S.P.Tolstov tomonidan topilgan va bugungi kunda Davlat Ermitaj muzeyi kolleksiyasida saqlanayotgan, "Afrig'" [fryg] deya o'qilgan tanga B.I.Vaynberg va V.A.Livshits tomonidan "Bivarsar" [bvarsr] nomi bilan o'qilgan [13]. S.P.Tolstov tadqiqotlarida Afrig'iyalarni kelib chiqishi eroniy sulolaga bog'lash alomatlarini sezilib turadi va o'z fikrini isbotlash uchun bot-bot Beruniy asariga murojaat qilganligi e'tiborimizni qaratadi. Balkim bu shu davrda siyosiy va mafkuraviy qarashlarning qandaydir natijasi bo'lsa kerak.

E.V.Rtveladze ham Afrig'iyalar sulolasining paydo bo'lishi haqida so'z yuritib, Beruniy asarini arxeologik va numuzmatik materiallarni qiyosiy tahlil qiladi va Beruniyning ma'lumotlaridan foydalangan holda Xorazm tarixiga oid ilmiy nashrlarda qabul qilingan fikrlarga qo'shilmagan bir qancha muhim xulosalar chiqaradi. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"ning M.Sal'e tarjimasida Beruniy Afrig'ning hokimiyat tepasiga kelishi haqida hech narsa aytmagani, faqat Iskandar davrining 616-yilida (milodiy 305-yilda) al-Fir ustida o'z saroyini qurdirganini aytadi. E.V.Rtveladze Beruniy ma'lumotlarini "yarim afsonaviy" ma'lumotlar qatoriga qo'shadi va Xorazm hukmdorlari ro'yxatini o'z ichiga

olgan numuzmatik materiallarga asosan III asr boshi IV asr oxirida Xorazmda zarb qilingan tangalarda Afrig' nomi yo'qligini to'liq ko'rsatishini ta'kidlaydi. E.V.Rtveladze, Vazamar bu-hukmdor nomi, Afrig' esa sulola nomi. Vazamar nomi numuzmatik materiallarda o'z aksini topgan bo'lsa, Afrig' nomi Beruniy ma'lumotlarida uchraydi. E.V.Rtveladze Afrig'iylar sulolasi nomini Vazamariylar sulolasi nomiga almashtirishni taklif qiladi [14].

Aykut O'zbekayraktar Beruniy tomonidan keltirilgan 22 ta afrig'iy xorazmshohlarni xorazmshoh emas balki, manbalarda tilgan olingan oxirgi afrig'iy xorazmshoh Abdulloh Muhammad ibn Ahmadning shajarasidir degan fikrni ilgari surgan [15].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Beruniyning "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" asarida Xorazmning tarixi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, shuningdek, Afrig'iylar sulolasining davriga doir ma'lumotlar keltirilgan. Asar haqida S.P.Tolstov, E.V.Rtveladze, K.E.Bosvort, A.O'zbekayraktalarning turli tarixiy yondashuvlar asosida Beruniy ma'lumotlarini baholash, ularning qarashlari aks etgan. S.P.Tolstov asarning Xorazmning ilk o'rta asrlar tarixini o'rganish uchun qimmatligini aytgan bo'lsa, K.E.Bosvort asarning ishonchliligini shubha ostiga oladi. E.V.Rtveladze Beruniy ma'lumotlarini "yarim afsonaviy" ma'lumotlar qatoriga qo'shadi. A.O'zbekayraktalar tadqiqotlarida oxirgi afrig'iy hukmdor Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmadning hokimiyatga qanday kelganligini o'ziga xos legitimatsiya orqali tushintirish uchun ushbu shajarani tuzib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бируни Абу Райхан. Избранные произведения. т. I, «Памятники минувших поколений», Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1957.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, Т. I. - Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. – С. 77.
3. Fedorov M. The Khwarazmshahs of the Banu Iraq (Fourth/Tenth Century) // Iran:

Journal of the British Institute of Persian Studies, Vol. XXXVIII, 2000. – P. 71.

4. Sonja Brentjes. Abu Nasr Mansur b. 'Ali b. 'Iraq (lived circa 950-1036) and Abu l-Rayhan al-Biruni (lived from 973-after 1050) as students, teachers, and companions. Models & Optimisation and Mathematical Analysis Journal Vol.03 Issue 01 (2015)
 5. Бируни Абу Райхан. Определение границ, мест для уточнения расстояний между населенными и пунктами (Геодезия) // Избранные произведения, 1, стр 15. т.3. – Т.: "Фан", 1966. Абу Райхан Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: "Фан", 1968.
 6. Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: "Фан", 1968. 29-31 б.
 7. Edward Sachau. Chronologie orientalischer Völker (Brockhaus,), also by Muḥammad ibn Aḥmad Bīrūnī
 8. Edward Sachau. Chronology of Ancient Nations by Al Biruni. London. 1879.
 9. Бируни Абу Райхан. Избранные произведения. т. I, «Памятники минувших поколений», Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1957.
 10. Толстов С.П. Бируни и его «Памятники минувших поколений» (Бируни Абу Райхан. Избранные произведения) т. I, стр.7-21.
 11. Bosworth, Clifford Edmund (1984a). "Āl-e Afrīg". Encyclopaedia Iranica, Vol. I, Fasc. 7. pp. 743–745.
 12. С.П.Толстов. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. Б-110.// По следам... С. 191—192
 13. Вайнберг Б.И. Монеты...; Каталог. С. 116, № 207, X VII, VII.
 14. Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма// Хорезм в государственности Узбекистан. – Ташкент, 2013.
- Aykut Özbekayraktar. Afrîg Hanedanı: Hârezmşâh II. Muhammed'in Soyağacı Üzerine Bir İnceleme. İran Çalışmaları Dergisi. Cilt: 7, Sayı: 1.2023. , ss. 151-1